

2023- yil yanvar-may oylari uchun
dastlabki ma'lumot



XORAZM VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
(62) 224-65-09



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-may oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **386,1 mln. AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-may oylariga nisbatan **145,1 mln. AQSH** dollariga yoki **60,2 %** ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-may, mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **386,1** +60,2 %

(2022- y.: **241,0**)



Saldo

2023- y.: - **113,6** (2022 y.: - 37,0)



Eksport

2023- y.: **136,3** +33,6 %

(2022- y.: **102,0**)



Tovarlar: **131,4**



Xizmatlar: **4,9**



Import

2023- y.: **249,8** +79,8 %

(2022- y.: **139,0**)













Tovarlar: **249,8**

Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

TSAda eksport hajmi **136,3** mln. AQSH dollariga (**33,6** % ga ko‘paydi) va import hajmi **249,8** mln. AQSH dollariga (**79,8** % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida **-113,6** mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



XORAZM VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-may, mln. AQSH dollari)

<p>Braziliya</p> <p>TSA – 79,2</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 79,2</p> <p> 20,5 %</p>	<p>Rossiya Federatsiyasi</p> <p>TSA – 57,0</p> <p>Eksport : 29,7 Import : 27,3</p> <p> 14,8 %</p>	<p>XXR</p> <p>TSA – 43,0</p> <p>Eksport : 4,7 Import : 38,3</p> <p> 11,1 %</p>	<p>Pokiston</p> <p>TSA – 31,3</p> <p>Eksport : 31,1 Import : 0,2</p> <p> 8,1 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 30,8</p> <p>Eksport : 8,2 Import : 22,6</p> <p> 8,0 %</p>
<p>Qirg‘iz Respublikasi</p> <p>TSA – 24,9</p> <p>Eksport : 24,7 Import : 0,2</p> <p> 6,4 %</p>	<p>Germaniya</p> <p>TSA – 24,4</p> <p>Eksport : 0,5 Import : 23,9</p> <p> 6,3 %</p>	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 14,5</p> <p>Eksport : 8,9 Import : 5,6</p> <p> 3,7 %</p>	<p>Belarus</p> <p>TSA – 10,8</p> <p>Eksport : 1,1 Import : 9,7</p> <p> 2,8 %</p>	<p>Eron</p> <p>TSA – 9,5</p> <p>Eksport : 4,4 Import : 5,1</p> <p> 2,5 %</p>

Xorazm viloyati jahonning **101** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Braziliya (**20,5** %), Rossiya Federatsiyasi (**14,8** %), XXR (**11,1** %), Pokiston (**8,3** %), Turkiya (**8,0**), Qirg'iz Respublikasi (**6,4** %) va Germaniyada (**6,3** %) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Qirg'iz Respublikasi, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, va Afg'oniston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda qo'shni davlatlar bilan viloyatning TSAsi hajmi **47,1** foizga oshdi.



TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT

(2023- yil yanvar-may, mln. AQSH dollari)



Pokiston – 30,8



Qirg'iz Respublikasi – 24,6



Tojikiston – 9,5























Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan **6** ta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Qolgan **14** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



XORAZM VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-may, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Braziliya	50,3	0,0	79,2
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	50,3	0,0	79,2
Rossiya Federatsiyasi	36,4	57,1	57,0
 <i>Eksport</i>	22,3	31,0	29,7
<i>Import</i>	14,1	26,1	27,3
XXR	54,4	42,2	43,0
 <i>Eksport</i>	10,7	5,2	4,7
<i>Import</i>	43,7	37,0	38,3
Pokiston	2,2	3,5	31,3
 <i>Eksport</i>	1,3	3,4	31,1
<i>Import</i>	0,9	0,1	0,2
Turkiya	24,4	66,7	30,8
 <i>Eksport</i>	11,4	15,1	8,2
<i>Import</i>	13,0	51,3	22,6
Qirg'iz Respublikasi	17,9	11,3	24,9
 <i>Eksport</i>	17,9	11,2	24,7
<i>Import</i>	0,0	0,1	0,2
Germaniya	3,2	2,8	24,4
 <i>Eksport</i>	0,2	1,2	0,5
<i>Import</i>	3,0	1,6	23,9
Qozog'iston	10,3	28,5	14,5
 <i>Eksport</i>	6,9	21,1	8,9
<i>Import</i>	3,4	7,4	5,6
Belarus	1,1	1,5	10,8
 <i>Eksport</i>	0,4	0,8	1,1
<i>Import</i>	0,7	0,7	9,7
Eron	2,4	2,9	9,5
 <i>Eksport</i>	1,0	1,6	4,4
<i>Import</i>	1,4	1,3	5,1

	Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
	Tojikiston	2,4	1,3	9,5
	<i>Eksport</i>	2,3	1,1	9,5
	<i>Import</i>	0,1	0,2	0,0
	Polsha	1,0	2,1	5,8
	<i>Eksport</i>	0,4	0,5	2,5
	<i>Import</i>	0,6	1,6	3,3
	Shveysariya	0,1	0,1	4,9
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	0,1	0,1	4,9
	Turkmaniston	5,2	5,3	4,7
	<i>Eksport</i>	3,2	2,3	1,5
	<i>Import</i>	2,0	2,0	3,2
	Yaponiya	0,2	0,1	4,5
	<i>Eksport</i>	0,1	0,0	0,0
	<i>Import</i>	0,1	0,1	4,5
	Koreya Respublikasi	10,9	2,1	4,3
	<i>Eksport</i>	0,4	0,2	2,0
	<i>Import</i>	10,5	1,9	2,3
	Finlyandiya	0,2	0,0	3,7
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	0,2	0,0	3,7
	Litva	1,0	1,4	3,5
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,7
	<i>Import</i>	1,0	1,4	2,8
	Belgiya	0,2	0,2	2,6
	<i>Eksport</i>	0,0	0,2	0,0
	<i>Import</i>	0,2	0,0	2,6
	Chexiya	0,7	0,2	1,5
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	1,2
	<i>Import</i>	0,7	0,2	0,3



XORAZM VILOYATIINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-may)*

	Hajm mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Xorazm viloyati	386,1	160,2	100,0
Urganch sh.	55,6	96,0	14,4
Xiva sh.	11,1	112,3	2,9
Bog'ot	16,7	147,6	4,3
Gurlan	14,2	173,8	3,7
Qo'shko'pir	25,7	2,3 m.	6,7
Urganch	24,1	110,5	6,2
Hazorasp	22,0	157,8	5,7
Tuproqqal'a	102,6	13,6 m.	26,6
Xonqa	28,8	158,6	7,5
Xiva	11,0	183,5	2,8
Shovot	33,0	166,9	8,5
Yangiariq	24,7	54,1	6,4
Yangibozor	15,4	181,9	4,0

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Tuproqqal'a 102,6

Urganch sh. 55,6

Shovot 33,0

Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Xiva 11,0


Xiva sh. 11,1

Gurlan 14,2

ViLOYAT tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Tuproqqal'a tumani **26,6** % ulush bilan **102,6** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Xiva tumani **2,8** % ulush bilan **11,0** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yilning yanvar-may oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **31,7** %ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning shu davriga nisbatan past ko'rsatkichni qayd etdi.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-may oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **97,8** %ga oshdi va jami TSA'dagi ulushi **68,3** % ni tashkil etdi.

Xorazm viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-may holatiga ko'ra, **122,4** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport **75,9** mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **46,5** mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



XORAZM VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-may, mln. AQSH dollari)


<p>Rossiya Federatsiyasi</p> <p>TSA – 57,0 Eksport – 29,7 Import – 27,3</p> 	<p>Turkmaniston</p> <p>TSA – 4,7 Eksport – 1,5 Import – 3,2</p> 
<p>Qirg'iz Respublikasi</p> <p>TSA – 24,9 Eksport – 24,7 Import – 0,2</p> 	<p>Ukraina</p> <p>TSA – 0,7 Eksport – 0,2 Import – 0,5</p> 
<p>Qozog'iston</p> <p>TSA – 14,5 Eksport – 8,9 Import – 5,6</p> 	<p>Moldova Respublikasi</p> <p>TSA – 0,2 Eksport – 0,2 Import – 0,0</p> 
<p>Belarus</p> <p>TSA – 10,8 Eksport – 1,1 Import – 9,7</p> 	<p>Ozərbayjon</p> <p>TSA – 0,2 Eksport – 0,2 Import – 0,0</p> 
<p>Tojikiston</p> <p>TSA – 9,5 Eksport – 9,5 Import – 0,0</p> 	<p>Armaniston</p> <p>TSA – 0,0 Eksport – 0,0 Import – 0,0</p> 




Xorazm viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori ulushlari Rossiya (**46,5** %), Qirg'iz Respublikasi (**20,3** %) hamda Qozog'iston (**11,8** %) davlatlari bilan qayd etildi.

XORAZM VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-may, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



 Xorazm viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **107,1** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **64,4** mln. AQSH dollari, import hajmi esa **42,7** mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




XORAZM VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **118** taga yetdi va ular tomonidan **136,3** mln. AQSH dollari qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan **33,6** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-may, ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-may, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	102,0	136,3	119,3	133,6	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	29,7	52,1	127,6	175,5	29,1	38,2
Ichimliklar va tamaki	-	0,5	-	221,0 m.	-	0,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	2,0	2,1	54,8	100,7	2,0	1,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,6	1,5	41,8 m.	92,7	1,6	1,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,3	-	19,1 m.	-	1,3	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,3	1,0	107,6	3,3 m.	0,3	0,7
Sanoat tovarlari	49,7	53,1	108,3	106,8	48,8	39,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,1	0,4	72,3	2,5 m.	0,1	0,3
Turli xil tayyor buyumlar	9,8	20,7	142,4	2,1 m.	9,6	15,2
Xizmatlar	7,3	4,9	143,7	66,1	7,2	3,6

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **96,4 %**ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**39,0 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**38,2%**) va turli xil tayyor buyumlar (**15,2 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-may)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	45333,2	156,5
Don mahsulotlari	6377,9	550,4 m.
Turli xil ovqatlar va preparatlar	138,8	92,2
Shakar, shakar mahsulotlari va asal	88,2	22,9
Qahva, choy, kakao, ziravorlar va ularning mahsulotlari	115,8	111,8
Hayvonlar uchun ozuqa (maydalangan donlardan tashqari)	50,6	166,1
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	6,7	14,0
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	530,5	221,0 m.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari (yuqori va boshqa taroqli jundan tashqari) va ularning chiqindilari (kalava yoki matoga qayta ishlanmagan)	1517,4	99,8
Hayvonot va o'simlik xom ashyosi	263,2	5,1 m.
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	181,6	41,9
O'g'itlar uchun xom ashyo va minerallar (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	97,9	-
Po'kak va yog'och mahsulotlari	1,7	4,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1517,1	92,7
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyoviy moddalar	319,7	147,4 m.
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	220,2	-
Bo'yoqlar va taninlar	165,7	147,3
Birlamchi shakldagi plastmassalar	139,1	366,5
Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar	78,7	146,1
Boshqa turdagi kimyoviy materiallar va mahsulotlar	54,9	73,4
Efir moylari, rezinoidlar va parfyumeriya; hojatxona preparatlari, jilo va yuvish vositalari	29,2	127,4
Organik kimyoviy vositalar	2,9	-


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik iplari, matolar va shunga o'xshash mahsulotlar	44834,7	105,9
Qog'oz, karton va qog'oz xamiri, qog'oz yoki karton mahsulotlari	7587,2	3,9 m.
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'lmagan mahsulotlar	507,4	32,4
Boshqa metall buyumlar	157,0	4,1
Mantar va yog'ochdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari)	24,2	74,5
Rangli metallar	4,4	-
Teri, boshqa charm buyumlar, mo'ynalar	1,7	13,9
Rezina buyumlar	0,2	22,4
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Muayyan sohalar uchun maxsus ishlab chiqilgan mashinalar	149,4	370,8 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashina va uskunalar	123,5	298,1
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	44,0	-
Elektr mashinalari, apparatlari va asboblari va ularning elektr qismlari	25,4	-
Avtomobillar va ularning ehtiyot qismlari	19,7	18,8
Boshqa transport vositalari	2,5	-
Telekommunikatsiya, ovoz yozish va ovozni takrorlash uchun asboblari va uskunalar	0,7	-
Ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash uchun ish yuritish mashinalari va uskunolari	0,7	-
Metallni qayta ishlash uskunolari	0,04	-
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim va kiyim aksessuarlari	16420,8	180,7
Oyoq kiyimlari	2593,3	10,6 m.
Sayohat aksessuarlari, sumkalar va shunga o'xshash idishlar	907,9	34,2 m.
Boshqa turdagi tayyor mahsulotlar.	374,9	97,8
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matraslar, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar	368,6	6,8 m.
Bloklangan binolar, sanitariya-tesisat, isitish va yoritish uskunolari uchun armature	27,4	42,1 m.
Boshqa turdagi maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari.	14,8	-
Boshqa toifalarga kiritilmagan fotoapparat, uskunolari va optik mahsulotlar	9,1	36,8 m.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-may oylarida MDH mamlakatlarga **75,9** mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **55,7** % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-may, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-may oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Pokiston, Rossiya, Qirg'iz Respublikasi, Tojikiston, Qozog'iston, Turkiya va Xitoy kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **85,7** % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-may, % da)





XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-may, yillar kesimida)*

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Pokiston	3,4	31,1	2,5 m.	9,2 m.	6	1
Rossiya Federatsiyasi	31,0	29,7	139,5	95,7	1	2
Qirg'iziston	11,2	24,7	62,7	2,2 m.	4	3
Tojikiston	1,1	9,5	48,7	8,4 m.	11	4
Qozog'iston	21,1	8,9	3,1 m.	42,1	2	5
Turkiya	15,1	8,2	133,1	54,0	3	6
Xitoy	5,2	4,7	48,9	89,9	5	7
Eron	1,6	4,4	158,9	2,8 m.	8	8
Polsha	0,5	2,5	122,6	5,2 m.	16	9
Koreya Respublikasi	0,2	2,0	55,2	10,1 m.	22	10
Turkmaniston	2,2	1,5	69,4	65,2	7	11
Iroq	0,4	1,4	152,6	3,2 m.	17	12
Chexiya	0,0	1,2	341,1 m.	31,7 m.	27	13
Belarus	0,8	1,1	2,0 m.	141,0	12	14
Litva	0,0	0,7	327,7 m.	32,0 m.	33	15
Hindiston	0,1	0,6	65,5	7,6 m.	25	16
Gruziya	0,8	0,6	169,8	75,7	13	17
Germaniya	1,2	0,5	4,7 m.	41,1	10	18
Vyetnam	0,5	0,3	2,8 m.	60,4	15	19
Afg'oniston	1,4	0,2	197,6	15,8	9	20



XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-may)*

	Hajm mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Xorazm viloyati	136,3	133,6	100,0
Urganch sh.	13,2	112,1	9,7
Xiva sh.	5,2	94,3	3,8
Bog'ot	12,0	139,7	8,8
Gurlan	9,8	2,3 m.	7,2
Qo'shko'pir	2,2	28,2	1,6
Urganch	13,6	134,1	10,0
Hazorasp	10,8	137,3	7,9
Tuproqqal'a	7,5	2,2 m.	5,5
Xonqa	14,4	114,3	10,6
Xiva	6,3	134,2	4,6
Shovot	13,7	114,3	10,0
Yangiariq	11,8	2,2 m.	8,7
Yangibozor	14,3	2,2 m.	10,5

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Xonqa

14,4

Yangibozor

14,3

Shovot

13,7

Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Qo'shko'pir

2,2

Xiva sh.

5,2

Xiva

6,3

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Xonqa tumani **10,6** % bilan **14,4** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Qo'shko'pir tumani **1,6** % bilan **2,2** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-may oylarida **48,1** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **28,3** foizga yoki **19,0** ming tonnaga kamaydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (**58,0** %), Rossiya (**28,3** %), Qozog'iston (**10,7** %) hamda Polsha (**0,7** %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2023- yil yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **45,0 mln.** AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **54,1** % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi **33,0** % ni tashkil etdi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2023- yil yanvar-may)





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI

(2023- yil yanvar-may)

Davlatlar	Tonna (birlikda)	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Pokiston	5689,6	26091,3	58,0
 Rossiya Federatsiyasi	16668,6	12745,3	28,3
 Qozog'iston	24046,3	4821,6	10,7
 Polsha	356,6	311,7	0,7
 Afg'oniston	314,3	222,0	0,5
 BAA	70,5	158,1	0,4
 Turkmaniston	393,9	144,0	0,3
 Eron	116,0	137,6	0,3
 Turkiya	64,5	135,0	0,3
 Ukraina	170,2	97,7	0,2
 Boshqa davlatlar	196,8	130,3	196,8

* qiymat ifodasidan



2023- yil yanvar-may oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokistonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **58,0** %i), bu ko'rsatkich Rossiyaga eksport hajmidan **2,0** martaga ko'p.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2023- yil yanvar-may oylari yakuni bo‘yicha **35,8 mln.** AQSH dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **26,2 %** ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan **30,9 %** ga kamaydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**45,2 %**) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **133** turdagi to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning **18** ta davlatiga eksport qilindi.

TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-may, mln. AQSH dollari)



	2022- yil	2023- yil
Jami:	51,7	35,8
 Paxtadan yigirilgan ip	35,6	0,0
 Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	8,9	16,2
 Naqshli mato	1,1	0,7
 Boshqa to‘qimachilik mahsulotlari	1,3	2,8
 Paxtadan gazlamalar	3,4	9,2
 Ipak va ipak mahsulotlari	0,8	1,9
 Paxta mahsulotlari	0,4	2,2
 Gilamlar	0,1	2,8



DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSH dollari)



	2022- yil	2023- yil	O‘shish sur‘ati, % da
 Qirg‘iz Respublikasi	5,5	14,9	2,7 m.
 Tojikiston	-	7,1	-
 Rossiya Federatsiyasi	16,9	5,9	35,0
 Qozog‘iston	3,8	2,1	55,8
 Koreya Respublikasi	-	1,8	-
 Chexiya	-	1,2	-
 Belarus	0,6	0,7	108,6
 XXR	5,2	0,5	9,5
 Germaniya	1,1	0,4	37,4
 Vyetnam	0,5	0,3	60,3
 Boshqa davlatlar	18,3	0,8	4,5



Viloyatning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to‘qimachilik bozoridagi ulushi oshib bormoqda.


To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Qirg‘iz Respublikasi (**41,7 % – 14,9 mln. AQSH dollari**) va Tojikiston (**19,9 % – 7,1 mln. AQSH dollari**) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2023- yil yanvar-may, ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **4,9** mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **3,6** % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **33,9** % ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (**41,9** %), transport (**37,5** %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (**2,8** %) va boshqa xizmatlar (**17,5** %) hissasiga to'g'ri kelgan.

XORAZM VILOYATINING IMPORTI




2023- yilning yanvar-may oylarida import hajmi **178,9** mln. AQSH dollarini tashkil qildi va 2022- yilning mos davriga nisbatan **79,5 %** ga oshdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**43,1 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**35,4 %**) hamda nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (**7,7 %**) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-may, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-may oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **110,9** mln. AQSH dollariga ko'paydi va **249,8** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-may, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami import	139,0	249,8	90,1	179,8	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3,9	88,4	6,6	22,4 m.	2,8	35,4
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,1	69,3	4,6 m.	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	13,4	19,1	126,8	142,7	9,7	7,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,9	4,8	163,4	2,6 m.	1,4	1,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,9	1,4	134,0	153,7	0,6	0,6
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	10,8	10,1	142,4	93,6	7,7	4,0
Sanoat tovarlari	17,1	11,9	2,3 m.	69,4	12,3	4,8
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	82,0	107,7	192,9	131,3	59,0	43,1
Turli xil tayyor buyumlar	9,0	6,3	36,6	70,7	6,4	2,5



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-may)


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Shakar, shakar mahsulotlari va asal	81396,8	6288,9 m.
Hayvonlar uchun ozuqa (maydalangan donlardan tashqari)	3220,1	3,6 m.
Don va ularning mahsulotlari	1794,1	2,4 m.
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	1174,7	78,9
Sabzavotlar va mevalar	397,6	192,0
Har xil ovqatlar va preparatlar	228,5	2,4 m.
Tirik hayvonlar	137,1	126,8
Qahva, choy, kakao, ziravorlar va ularning mahsulotlari	95,5	28,4
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	50,6	4,6 m.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Yog'och mahsulotlari	17565,6	153,1
To'qimachilik tolalari	1425,7	3,4 m.
Tabiiy kauchuk	65,2	40,8
Hayvonlar va o'simliklardan mahsulotlar	43,5	3,7
O'g'itlar uchun xom ashyo va minerallar (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	38,1	-
Qog'oz xamiri va makulatura	5,7	-
Metall rudalari va metall parchalari	0,1	18,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	4479,0	2,4 m.
Ko'mir, koks va briketlar	368,7	26,0 m.
Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lari va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari	1376,7	153,7
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	3795,6	152,7
O'g'itlar	2948,5	48,4
Bo'yoqlar va taninlar	815,6	2,0 m.
Boshqa turdagi kimyoviy materiallar va mahsulotlar	778,8	3,6 m.
Efir moylari, rezinoidlar va parfyumeriya; hojatxona preparatlari, jilo va yuvish vositalari	642,6	5,3 m.
Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar	469,9	2,1 m.
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	312,0	53,8
Noorganik kimyoviy moddalar	163,8	33,0
Organik kimyoviy moddalar	134,8	107,9

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Metall buyumlar	2685,3	34,4
To'qimachilik iplari, matolar	2447,2	190,5
Mantar va yog'ochdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari)	2344,8	175,6
Quyma temir va po'lat	1791,1	45,0
Qog'oz, karton va qog'oz xamiri, qog'oz yoki karton mahsulotlari	1455,9	104,4
Rezina buyumlar	564,7	2,4 m.
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'lmagan minerallardan mahsulotlar	558,8	55,2
Rangli metallar	35,2	91,7
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Muayyan sohalar uchun maxsus ishlab chiqilgan mashinalar	63149,1	155,8
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashina va uskunalar	15916,4	3,0 m.
Avtomobillar va ularning ehtiyot qismlari	14108,2	2,4 m.
Elektr mashinalari, apparatlari va asboblari va ularning elektr qismlari	9333,6	98,7
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	4179,0	21,9
Telekommunikatsiya, ovoz yozish va ovozni takrorlash uchun asboblari va uskunalar	510,2	88,5
Metallni qayta ishlash mashinalari	374,7	37,1
Ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash uchun ish yuritish mashinalari va uskunolari	108,0	120,7
Boshqa transport vositalari	25,5	879,3 m.
Turli hil tayyor buyumlar		
Bloklangan binolar, sanitariya-tesisat, isitish va yoritish uskunolari uchun armature	3250,4	49,8
Boshqa turdagi maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari.	1507,7	77,1
Boshqa turdagi tayyor mahsulotlar.	1298,7	4,6 m.
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matras tayanchlari, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar	185,4	2,2 m.
Oyoq kiyimlari	76,1	101,9
Boshqa toifalarga kiritilmagan fotoapparat, uskunalar, sarf materiallari va optik mahsulotlar	5,6	40,1
Kiyim va kiyim aksessuarlari	4,8	66,0
Sayohat aksessuarlari va sumkalar	2,5	176,5

2023- yil yanvar-may oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **18,6 %** ni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **19,5 %** ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-may, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-may oylarida Xorazm viloyati **47** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Braziliya, XXR, Rossiya, Germaniya, Turkiya, Belarus va Qozog'iston) jami importning **82,7** foizini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-may, % da)





XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-may, yillar kesimida)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Braziliya	-	79,2	-	-	-	1
XXR	37,0	38,3	84,7	103,6	2	2
Rossiya Federatsiyasi	26,0	27,3	184,1	104,7	3	3
Germaniya	1,6	24,0	54,1	14,8 m.	8	4
Turkiya	51,6	22,7	3,9 m.	43,9	1	5
Belarus	0,7	9,7	101,3	13,4 m.	13	6
Qozog'iston	7,3	5,6	2,1 m.	75,9	4	7
Eron	1,4	5,2	93,8	3,8 m.	-	8
Shveytsariya	0,1	4,9	79,3	77,7 m.	30	9
Yaponiya	0,1	4,5	92,6	67,3 m.	29	10
Finlyandiya	-	3,7	-	-	-	11
Polsha	1,6	3,3	2,5 m.	2,0 m.	7	12
Turkmaniston	3,0	3,2	152,8	105,2	5	13
Litva	1,4	2,7	138,1	2,0 m.	10	14
Belgiya	0,1	2,6	35,5	42,8 m.	31	15
Koreya Respublikasi	1,9	2,3	18,3	120,9	6	16
Italiya	0,1	1,4	74,2	14,2 m.	25	17
BAA	0,1	1,3	-	24,9 m.	32	18
Bangladesh	0,5	1,2	52,5	2,7 m.	14	19
Gongkong	0,4	1,2	158,8	2,7 m.	15	20



XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023- yil yanvar-may)

	Hajm mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Xorazm viloyati	249,8	179,8	100,0
Urganch sh.	42,4	91,9	17,0
Xiva sh.	5,9	134,8	2,4
Bog'ot	4,6	173,1	1,9
Gurlan	4,4	110,9	1,8
Qo'shko'pir	23,5	7,2 m.	9,4
Urganch	10,5	89,9	4,2
Hazorasp	11,2	184,3	4,5
Tuproqqal'a	95,0	22,9 m.	38,0
Xonqa	14,4	2,6 m.	5,7
Xiva	4,6	3,7 m.	1,8
Shovot	19,3	2,5 m.	7,7
Yangiariq	12,9	32,0	5,2
Yangibozor	1,1	61,0	0,5

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulush Tuproqqal'a tumani hissasiga to'g'ri kelib, **38,0 %** bilan **95,0** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulush esa Yangibozor tumani hissasiga **0,5 %** bilan **1,1** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-may oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **107,7** mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan **31,3** %ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **43,1** %ga yetdi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-may)




2023- yil yanvar-may oylarida mashina va transport asbob-uskunalari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **25,7** mln. AQSH dollariga oshdi. Ushbu tovarlarni Xorazm viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR — **33,8** mln. AQSH dollari (**31,3** %), Germaniya — **21,5** mln. AQSH dollari (**20,0** %) va Turkiya - **16,7** mln. AQSH dollari (**15,5** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023- yil yanvar-may oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **11,9** mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **30,6** % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **4,8** % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-may, ulushi, % da)

2,763 mln. AQSH
doll, *ulushi* – **23,3** %




Rossiya
Federatsiyasi

2,000 mln. AQSH
doll, *ulushi* – **16,8** %



Turkiya

1,854 mln. AQSH
doll, *ulushi* – **15,6** %



Xitoy Xalq
Respublikasi

1,241 mln. AQSH
doll, *ulushi* – **10,4**



Bangladesh

1,147 mln. AQSH
doll, *ulushi* – **9,6**



Belarus



Sanoat mahsulotlari importi asosan metal buyumlar (**2,6** mln. AQSH dollari), to'qimachilik iplari, matolar, tayyor mahsulotlar (**2,4** mln. AQSH dollari), yog'och va yog'ochdan bo'lgan buyumlar (**2,3** mln. AQSH dollari), quyma temir va po'lat (**1,8** mln. AQSH dollari), qog'oz, karton va qog'oz xamiri (**1,5** mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.